

Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹

2025- yil yanvar-may


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida o'zgarishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalr natijalarini hisobga olgan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **15 133,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **2 525,5** mlrd. so'mga o'sishi qayd etildi.

***Ma'lumot uchun:** 2024- yil yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi 12 608,4 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa 108,7 % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



¹2024- yil yanvar-may oylari hajmi va 2025- yil yanvar-may oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalr natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida o'zgarishi

2025- yilning yanvar-may oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **26,4 %**, ya'ni **3 997,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan ushbu shaharning o'sish sur'ati **108,7 %** ga yetgan.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush G'ijduvon (**8,0 %**), Romitan (**5,8 %**) va Jondor (**3,8 %**) tumanlarida kuzatilmoxda.

Qorovulbozor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **199,5** mlrd. so'mni yoki jami xizmatlar hajmining **1,3 %** ni tashkil etdi. O'sishi **16,3 %** ga yetdi.

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari 2025- yil yanvar-may

| | Hajmi, mlrd. so'mda | Ulushi, % da | O'sishsur'ati, % da |
|------------------------------------|----------------------------|---------------------|----------------------------|
| Buxoro viloyati² | 15 133,9 | 100,0 | 109,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Olot | 350,4 | 2,3 | 110,9 |
| Buxoro | 529,8 | 3,5 | 110,6 |
| Vobkent | 472,8 | 3,1 | 67,8 |
| G'ijduvon | 1 189,0 | 8,0 | 109,9 |
| Kogon | 351,2 | 2,3 | 115,4 |
| Qorako'l | 468,2 | 3,1 | 109,7 |
| Qorovulbozor | 199,5 | 1,3 | 116,3 |
| Peshku | 571,0 | 3,8 | 109,4 |
| Romitan | 885,3 | 5,8 | 179,2 |
| Jondor | 581,2 | 3,8 | 109,7 |
| Shofirkon | 466,2 | 3,1 | 109,8 |
| Buxoro shahri | 3 997,7 | 26,4 | 108,7 |
| Kogon shahri | 396,0 | 2,6 | 111,9 |

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi

2025-yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 276,3** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davri (**6 158,5** ming so'm)ga nisbatan **1 117,8** ming so'mga yoki **7,8 %** ga o'sish qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahriga to'g'ri kelib **13 290,1** ming so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan **6,7 %** ga yoki **1 749,9** ming so'mga o'sishi kuzatildi.

Eng past ko'rsatkich Shofirkon tumanida **2 473,1** ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,7 %** ga yetdi.

²shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar-may)**

| | Hajmi, mlrd. so'mda | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|------------------------|-------------------------|
| Buxoro viloyati | 7 276,3 | 107,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Olot | 3 309,2 | 109,5 |
| Buxoro | 2 909,3 | 108,6 |
| Vobkent | 3 120,6 | 66,6 |
| G'ijduvon | 3 627,3 | 108,3 |
| Kogon | 4 060,6 | 113,2 |
| Qorako'l | 2 683,2 | 108,2 |
| Qorovulbozor | 9 780,8 | 113,5 |
| Peshku | 4 273,6 | 107,5 |
| Romitan | 5 763,5 | 176,8 |
| Jondor | 3 073,4 | 107,7 |
| Shofirkon | 2 473,1 | 108,7 |
| Buxoro shahri | 13 290,1 | 106,7 |
| Kogon shahri | 6 036,9 | 110,5 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 258,7** mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **67,8 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha Buxoro shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **283,7** mlrd. so'mga yoki **12,7 %** ga oshib, **1 595,1** mlrd. so'mga yetdi. Bu shaharda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **39,9 %** ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, G'ijduvon (**1 000,7** mlrd. so'm), Jondor (**473,3** mlrd. so'm) va Peshku (**433,4** mlrd. so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Romitan tumanida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **396,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, Kogon (**282,2** mlrd. so'm) va Olot (**291,6** mlrd. so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.



**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirdorlik ko'rsatkichlari
2025-yil yanvar-may**

| | Hajmi, mlrd. so'mda | Jami hajmdagi ulushi, % da | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|------------------------|----------------------------------|----------------------------|
| Buxoro viloyati | 10 258,7 | 67,8 | 110,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Olot | 291,6 | 83,2 | 107,5 |
| Buxoro | 429,5 | 81,1 | 111,9 |
| Vobkent | 382,1 | 80,8 | 112,3 |
| G'ijduvon | 1 000,7 | 84,2 | 113,0 |
| Kogon | 282,2 | 80,3 | 109,4 |
| Qorako'l | 370,3 | 79,1 | 111,7 |
| Qorovulbozor | 109,9 | 55,1 | 90,5 |
| Peshku | 433,4 | 75,9 | 113,9 |
| Romitan | 396,7 | 44,8 | 107,0 |
| Jondor | 473,3 | 81,4 | 111,6 |
| Shofirkon | 370,8 | 79,5 | 111,2 |
| Buxoro shahri | 1595,1 | 39,9 | 112,7 |
| Kogon shahri | 294,6 | 74,4 | 111,4 |

**III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy
ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldag'i "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-sون qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirdorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga transport xizmatlarining **13,9** % ga (o'sishiga ta'siri **2,4** bandni), savdo xizmatlarining **10,4** % ga (o'sishiga ta'siri **2,3** bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining **6,1** % ga (o'sishiga ta'siri **1,6** bandni), moliyaviy xizmatlarning **5,0** % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining o'sishiga ta'siri **0,7** bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **15,5** % ga (o'sishiga ta'siri **0,5** bandni), shuningdek, ijara xizmatlarining **25,0** % ga (o'sishiga ta'siri **0,4** bandni), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning **14,0** % ga (o'sishiga ta'siri **0,3** bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning **5,7** % ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,2** bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-may)

| | Hajmi, mlrd. so'mda | | O'sish sur'ati, % da |
|---|----------------------------|-----------------|-----------------------------|
| | 2024-y. | 2025-y. | |
| Xizmatlar – jami | 15 133,9 | 12 608,4 | 109,5 |
| <i>shundan:</i> | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 493,7 | 394,0 | 115,5 |
| moliyaviy xizmatlar | 1 927,4 | 1 785,3 | 105,0 |
| transport xizmatlari | 2 730,7 | 2 162,6 | 113,9 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | | | |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 4 103,3 | 3 376,2 | 106,1 |
| savdo xizmatlari | 3 180,4 | 2 753,6 | 110,4 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 224,4 | 185,4 | 115,3 |
| ta'lif sohasidagi xizmatlar | 685,0 | 561,3 | 105,7 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 258,6 | 213,1 | 107,6 |
| ijara xizmatlari | 269,7 | 196,0 | 125,0 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 305,9 | 247,4 | 114,0 |
| shaxsiy xizmatlar | 311,1 | 241,4 | 110,2 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 108,1 | 77,7 | 126,5 |
| boshqa xizmatlar | 535,6 | 414,4 | 113,8 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,1** %, savdo xizmatlari **21,0** %, transport xizmatlari **18,1** %, moliyaviy xizmatlar **12,7** %, ta'lif sohasidagi xizmatlar **4,5** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,3** % ulushni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024-yilning tahvil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiyligi hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,8** %, savdo xizmatlari **21,8** %, transport xizmatlari **17,1** %, moliyaviy xizmatlar **14,2** %, ta'lif sohasidagi xizmatlar **4,4** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,1** % ulushni tashkil etgan.


O'zbekistonda yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada o'sib bormoqda. 2024-yil yanvar-may oylariga nisbatan mazkur xizmatlar **727,1** mlrd. so'mga yoki **6,1** % ga o'sish qayd etilib, jami hajmi **4 103,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, ushbu xizmatlarning ulushi **96,9** % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan savdo xizmatlari hajmi **426,8** mlrd. so'mga oshib, **3 180,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida chakana savdo ulushi **60,0** % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **27,0** % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **13,0 %** ni tashkil etdi.


2025-yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi **2 730,7** mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 2024-yilning mos davriga nisbatan **113,9 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmidagi ulushi **18,1 %** darajasida qayd etildi.

Transport xizmatlarining alohida turlari bo'yicha xizmatlar hajmi



2025-yilning yanvar-may oylarida, **transport** sohasi tarkibidagi **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari** (140,7 %), **avtotransport** (112,4 %) **xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari turlari bo'yicha xizmatlar hajmi



2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **493,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Telekommunikatsiya xizmatlarining aloqa va axborotlashtirish

xizmatlari umumiy hajmidagi ulushida eng katta qismini egallab, **79,8 %** ni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **114,8 %** ni tashkil etgan.

2025- yilning yanvar-may oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **685,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ta'lif sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lif sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **74,3 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning tahsil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **258,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **36,4 %** ini shifoxona muassasalari xizmatlari egalladi. Shunday qilib, sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar **35,1 %** ni, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **10,6 %** ni tashkil etdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida (**224,4** mlrd. so'm) shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar ulushi **97,0 %** ni tashkil etdi.

Ijara xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulushni yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari (**50,9 %**) egallaydi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;
- kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;
- fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

g) yakka tartibdagi tadbirdorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu - xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlarqo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.



Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsha), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 200100, Buxoro,
S. Ayniy ko'chasi, 3
Pochta: info@buxstat.uz
Tel.: 65-223-79-41

